

## NAVOIY ASARLARIDA BURCH MASALASI

**Ikromov Qamariddin Ilg‘orbekovich**

Samarqand viloyati Paxtachi tumani ixtisoslashtirilgan maktabining

Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola orqali har bir inson o‘z burchiga sodiqligi o‘ziga, jamiyatga, Vatanga, mehnatga, oilaga, farzandlariga bo‘lgan munosabatda namoyon bo‘lishini Navoiy asarlarida talqini ochib berilgan.

**Kalit so‘zi:** burch, qadriyat, farzand burchi, notiq burchi, fuqarolik burchi.

Alisher Navoiy buyuk olim, mutafakkir, ijodi takrorlanmas shoirdir. Adib asarlaridagi mavzu xilma-xil bo‘lib undan har gal o‘zimizga ma’naviy boylik olamiz. Shoir ijodida vatanga muhabbat, vafo va do‘stlik, xalqlar do‘stligi, insof va adolat, hunar o‘rganish, burch kabi mavzular qalamga olinadi.

Jumladan, adib ijodida uchraydigan burch, burchga sadoqat tushunchalariga alohida urg‘u berib o‘tadi. Navoiy asarlari lug‘atida “burch” so‘zi “qarz” ma’nosida kelib<sup>130</sup>, ado etilishi, bajarilishi majburiy bo‘lgan vazifa, majburiyat ma’nolarida keladi.

Burch muhim axloqiy-ma’naviy qadriyat hisoblanib, har bir shaxsning jamiyat oldidagi fuqarolik, ota-ona oldidagi farzandlik, xalq, millat oldidagi insonparvarlik, jamoatchilik oldidagi odamiylik vazifalarini bajarish demakdir. Burch - ado etilishi majburiy bo‘lgan insoniy vazifalar va insoniylik yuzasidan bajarilishi mumkin bo‘lgan axloqiy qoidalarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Navoiy ijodida insonning ota-ona oldidagi burchi, jamiyat oldidagi burchi, millat oldidagi burchi, kelajak avlod oldidagi burchi, tabiatni asrash burchi, insoniyatning

<sup>130</sup> Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. I tom.T;1983-yil.338-bet

o‘tmish merosini asrash va kelgusi avlodlarga yetkazish burchi haqida fikrlar keltirilgan.

Masalan, farzandning ota – ona oldidagi burchi haqida shunday yozadi:

Boshni fido ayla ato qoshig‘a ,  
Jismni qil sadqa ano boshig‘a.  
Tun – kunungga aylagali nur fosh,  
Birisin oy angla, birisin quyosh.

Ya’ni, otangning qoshiga boshingni fido, onangning boshiga jismingni sadqa qil. Birini tunni yoritadigan oy, birini kuningni yorituvchi quyosh deb bilishini takidlagan. Chindan ham, ota-ona farzandni yo‘lini yorituvchi, unga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatuvchi mayoqdir. Ota-onani hurmat va izzat qilish, keksayganda moddiy ta’minlash, ular nasihatiga quloq tutish va uni so‘zsiz ado etish farzandning ota-ona oldidagi burchi hisoblanadi. Farzand el-yurt oldida ota-ona obro‘si, qadr-qimmatini ko‘tarishi lozim. Farzand, ayniqsa, otani hurmat qilishga, topshiriqlarini bekamu-ko‘st bajarishga majbur. Uning ko‘nglini og‘ritish aslo mumkin emas. Oqil farzand ota qadrini yuksak tutadi. Shunday ekan, farzandning ular oldidagi burchi chegara bilmaydi.

Yoki, har bir insonning vatan oldidagi burchi haqida so‘z borganda Navoiy ushbu shohbayt orqali uni eslatadi:

Menga qilsa ming jafo, bir qatla faryod aylamom,  
Elga qilsa bir jafo, ming qatla faryod aylaram.

Ushbu misralar orqali ko‘rinib turibdiki, har bir insonning vatan oldidagi burchi uni asrash va avaylash, kerak bo‘lganda jon fido etishdir. Shu o‘rinda odamlarning xalqqa yordami tegishi, xalq g‘amini o‘z g‘ami deb bilish kerakligini takidlaydi. Bunday xususiyatga ega bo‘lmagan odamlarni odam qatoriga qo‘shmasligi bejiz emas:

Odamiy ersang, demagil odami  
Onikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.

Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida notiqning burchini quyidagicha ta’riflagan:

Notiq haq soʻzni targʻib qilishi, paygʻambar soʻzidan chetga chiqmasligi kerak, eng avval uning oʻzi haq va paygʻambar yoʻliga kirishi, soʻngra nasihat bilan elni ham shu yoʻlga solishi lozim. Bunday xususiyatga ega boʻlmagan voizni Navoiy shunday taʻriflaydi: “Oʻzi mastning elni hushyorlikka chaqirishi-uyquchi kishining odamlarni bedorlikka daʻvat etganiga oʻxshash bir narsadir.”

Uyqusida soʻzlagan kasal odamdir,

Unga quloq osgan esa tentakdir.

Yaʼni, vaʼzxonning oʻzi keng bilimga ega boʻlishi va uni tinglovchiga yetkaza bilishi, asosiysi, xalqning koʻnglidagi gapni topib, ularga maʼnaviy ozuqa berishi asosiy burchi sifatida qaralgan.

Navoiy hayotda oʻz ilmiga amal qilish, oʻrganganlarini hayotga tadbiq etish masalasiga alohida eʼtibor beradi. Masalan, u «Mahbub ul-qulub» asarida ilm oʻqib uni ishlatmagan kishi, shudgor qilib dehqonchilik qilmagan yoki urugʻ sochib hosildan bahra olmaganga oʻxshaydi, deydi.

Ilm oʻqib qilmagan amal maqbul,

Dona sochib koʻtarmadi maxsul.

Alisher Navoiy bilim olishda barcha fanlarni oʻrganishni targʻib etadi. Bunda u olimu fozillarni yigʻib, ular orqali ilm-fanni taraqqiy ettirishga eʼtibor beradi. Alisher Navoiyning fikricha, bilimlarni tinmay uzluksiz oʻrganish zarur, bunda har qanday qiyinchiliklarni yengib oʻtish muhimligini, qunt bilan ishlash, tirishqoqlik bilan harakat qilish, izchillik bilan kurash, uni oxirigacha yetkazish, chidam va sabot bilan oʻrganishni taʼkidlaydi.

Navoiy yigitlarda odob axloq, ilm, shirinsoʻzlik bilan bir qatorda barchaga foydasi tegadigan hunar oʻrganish uning burchi ekanligini taʼkidlaganlar.

Farzand ato qullugʻin chu odat qilgay,

Ul odat ila kasbi saodat qilgay. (Nazmul-javohir, XV-27)

**Koʻrinadiki, burch-** shaxsiy axloqiy faoliyatini ifodalovchi maʼsuliyat, onglilik, vijdon kabi fazilatlar bilan chambarchas bogʻliqdir. Oʻz burchiga sodiqlik har bir kishiga obroʻ, shon-sharaf keltiradi. Har bir inson oʻz burchiga sodiqligi oʻziga,

jamiyatga, Vatanga, mehnatga, oilaga, farzandlariga bo‘lgan munosabatda namoyon bo‘ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. I tom. T.;1983-yil.338-bet
2. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”. 14- tom T.:1998
3. Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror”. 7- tom T.:2004
4. Alibek Rustamov “Navoiyning badiiy mahorati”. T.;1979

